

MEXR-OQIBAT JAMIYAT BIRDAMLIGI GAROVI

Ataxanov Ozodbek Iskandar o'g'li

TATU Samarqand filiali, KI24-05 guruh talabasi

Tel: +998932890329

Annotatsiya: Insonning jamiyatdagi o'rni va tinchlik uchun bosib o'tgan yo'li va ezgu amallari va etiqodlari haqida fikriy yondashuvlar haqida fikr yuritiladi. Urf-odatlarimiz va tinchliksevar xalq eng ulug' nemat tushuncha ekanligini tushunish va anglash tog'risidagi g'oyalar yuritiladi.

Kalit so'zlar: Tinchlik, Oila, Evalutsiya, Bag'rikenglik, Din, E'tiqod, Diniy bag'rikenglik, Yoshlarga e'tibor, duyo tinchligi. Tinchliksevar malakatlar.

“Mehr-oqibat jamiyat birdamligi garovi”

Jamiyatdagi barcha insonlar bir-biri bilan munosabatda bo'lar ekan, ularning o'rtasida mehr oqibat va o'zaro ishonch bo'lsagina hayotlari yanada go'zallashib boraveradi. Insonning qadr-qimmati uning mehr oqibati bilan baholanadi. Qancha boy-badavlat yoki mansabdor bo'lmasin, u insonni mehr-oqibati bo'lmasa, qadr-qimmati, obro'si bo'lmaydi. Inson mehr-oqibatni avalo o'z ota-onasidan oladi, o'rganadi va yaqinlariga ota-onasiga o'sha olgan mehrini qaytaradi. Mehr ko'rmay katta bo'lgan kishilarda mehr berish ham kamroq bo'ladi. Aniqroq qilib aytadigan bo'lsak bemehr inson bo'ladi. Unday insonlarga yaqinlari tomonidan ko'proq e'tibor, ko'proq mehr berilsa, yaxshi tomonga o'zgaradi inshaa Alloh Paygambarimiz Muxammad sallollohu alayhi vasallamdan bir kuni sahobai kiromlar so'radilar: “Dunyoni nima qutqaradi ey Allohning rasuli?” Shunda Rasululloh sallollohu alayhi vasallam; “Dunyoni mehr, rahm-shafqat qutqaradi”, dedilar. Hatto, gul yoki ko'chat eksangiz ham, unga mehr berib tarbiyalamasangiz kerakli natijaga erisha olmaysiz. Shunday ekan azizlarim, bir-birimizdan mehr oqibatimizni darig' tutmaylik. Sarvari olam, Payg'ambarimiz

Muhammad sallollohu alayhi vasallamning bir xadislarida shunday rivoyat kilinadi: “Rasululloh sallollohu alayhi vassalam sahobalar bilan birga o‘tirganlarida, bir guruh odamlar tobutda mayyitni ko‘tarib o‘tib qoldilar. Shunda ul zot kim vafot etganini suradilar va mayyitni kim ekanligini bildilar. Shunda mayyit yaxshi sifatlar bilan eslandi.

Bu holatni kuzatib turgan Rasululloh sallollohu alayhi vasallam: “vojib bo‘ldi”, dedilar. Yana boshqa safar ham xuddi shunday bir guruh odamlar tobutda bir mayyitni ko‘tarib o‘tdilar. Faqat bu safar u mayitni yomon fe‘l va xulqlari aytili. Rasululloh sallollohu alayhi vasallam yana: “vojib bo‘ldi”, dedilar. Shunda: “nima vojib bo‘ldi ey Allohning rasuli”, deb so‘radilar. Rasululloh sallollohu alayhi vasallam: “Birinchi marta olib o‘tilgan mayitni yaxshiliklari haqida guvohlik berdilaringiz, u mayyitga jannat vojib bo‘ldi. Ikkinchi marta olib o‘tilgan mayyit haqida yomonliklarini zikr qildingiz, unga do‘zoh vojib bo‘ldi. Sizlar Allohning yerdagi guvohlarisizlar”, dedilar. Shunday ekan azizlarim, Yaratganimiz bizni suyb inson qilib yaratdi, iymonli bandalaridan qildi. Shunga munosib yashab, o‘zimiz va farzandlarimizga namuna bo‘laylik, yashab o‘tgan umrimizdan yaxshi iz qoldiraylik. Shunday ne‘matlardan biri bu mehr ne‘matidir. Alloh taoloning ne‘matlari ikki xildir. Agar biz barcha insonlarga kamaymaydigan ma‘naviy ne‘mat - mehrni bersak, ular orasidan vahobiy, hizbchi kabi adashgan kimsalar chiqmaydi. Oilasida mehr bor inson hech qachon Vataniga, oilasiga, ota-onasiga nisbatan qo‘pol muomala qilmaydi. Mehr - Din tanlamaydi. Mehr - dinlarni, xalqlarni, millatlarni va dunyodagi Alloh taolo yaratgan barcha maxluqotlarni birlashtiradi. Mehr ziyoda bo‘lsa, onalar farzandlarini sotmaydi. Mehrni bozori yo‘q. Mehr - bu yerga sochiladigan urug‘ kabi ulug‘ ne‘mat. Uni insonlarga qancha ko‘p ulashsak o‘zimizga shuncha ko‘p bo‘lib qaytadi. Mehrsizlik esa yomon illat. Nima uchun insonlar o‘z ota yoki onasini qariyalar uyiga olib borib tashlaydi? O‘sha qariyalar uyiga borishga majbur bo‘lgan insonni orqasida tog‘a-jivan, aka-uka, o‘g‘il-qizlarni beparvo qarab turishiga mehrsizlik sabab emasmi?! Ikkinchi Jahon urushi bo‘lib turgan vaqtda Rossiyadan kelgan farzandlarni nima uchun o‘zbeklar bag‘rini ochib, xonadoniga kiritdi, o‘z farzandlari qatorida farzand qilib, tarbiyalab, voyaga yetkazdi. Chunki ularda mehr bor edi. Chunki ular musulmon va musulmonlarni farzandlari edi. Mehr, ko‘p ma‘nolarni o‘z ichiga olgan ne‘matdir.

Shulardan biri rahmdillikdir. Uboda ibn Somir roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi: “Rasululloh sollallohu alayhi vasallam: “Kim kattalarimizni ulug‘lamasa, kichiklarimizga rahm qilmasa va olimimizning haqqini bilmasa, mening ummatimdan emas”¹, - dedilar”.

Tinchlik – bu insoniyat uchun eng buyuk boylik, farovon va osoyishta hayotning garovidir. Har bir xalq, har bir millat tinchlikda yashashni orzu qiladi, chunki tinchlik barqarorlik, rivojlanish va baxtning asosiy omilidir. Tinchlik o‘z-o‘zidan kelmaydi, u insonlar o‘rtasidagi hurmat, birdamlik va o‘zaro hamkorlik asosida qaror topadi. Agar insonlar o‘rtasida birdamlik mustahkam bo‘lsa, jamiyat tinchlikni ta‘minlash yo‘lida katta qadam tashlaydi. Tinchlikka bo‘lgan intilish bizni yanada kuchliroq, qat’iyatliroq qiladi. Tinchlik va osoyishtalik hukmron bo‘lgan joyda esa insonlar o‘z hayotidan rozi va baxtiyor bo‘lib yashaydi. Tinchlikning muhimligini tushunish uchun biz tarixga nazar solishimiz kerak. O‘tmishda insoniyat ko‘p marta urushlar, nizolar tufayli katta zarar ko‘rgan. Urushlar tufayli ko‘plab insonlar jonidan, mol-mulkidan ayrilgan, xalqlar orqasidan iztirob va qayg‘u izlarini olib kelgan. Shu bois, tinchlikning qadrini bilish va uni saqlash har bir insonning, har bir davlatning asosiy burchlaridan biridir. Agar jamiyat tinch bo‘lsa, unda insonlar o‘z maqsadlariga yetishish, o‘z orzularini amalga oshirish uchun katta imkoniyatlarga ega bo‘ladi. Tarixdan ko‘rinib turibdiki, tinchlikka erishish uchun ko‘plab kurashlar, jonbozlik va matonat talab etilgan. O‘tmishda qilingan xatolardan saboq olib, hozirgi va kelajak avlodlar tinchlikni qadrlashlari zarur.

Har bir inson tinchlik uchun o‘z hissasini qo‘shsa, jamiyat tinch va barqaror bo‘ladi. Tinchlikning qadriga yetgan xalq esa doimo bir-birini qo‘llab-quvvatlab, rivojlanishga intiladi. Bugungi kunda dunyoda tinchlikni saqlash masalasi dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Bir necha hududlarda davom etayotgan nizolar va urushlar sababli millionlab insonlar tinch hayotdan mosuvo bo‘lib, og‘ir sharoitlarda yashashga majbur. O‘zbekiston hamisha tinchlik va barqarorlik tarafdori bo‘lib kelgan. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev boshchiligida olib borilayotgan siyosatning ham asosiy yo‘nalishlaridan biri mintaqada tinchlik va barqarorlikni ta‘minlashdan iboratdir. Bu borada qo‘shni davlatlar bilan yaqin

¹ <https://muslim.uz/oz/e/post/40048-rasulullohning-sly-allh-lyh-wslm-go-zal-xulqlari>

hamkorlikda ishlash, xalqaro munosabatlarda do'stona aloqalarni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Bundan tashqari, xalqaro tashkilotlar bilan faol hamkorlik olib borilib, tinchlikni mustahkamlash yo'lida muhim tashabbuslar ilgari surilmoqda. Tinchlikka erishish faqat O'zbekiston uchun emas, balki butun Markaziy Osiyo mintaqasi uchun ham katta ahamiyatga ega. Shu bois, tinchlik va barqarorlikni saqlash uchun har bir davlat o'z mas'uliyatini his qilishi va hamkorlikda harakat qilishi zarur. Tinch va osoyishta jamiyatda yoshlar o'z kelajagini qurish uchun keng imkoniyatlarga ega bo'ladi. Shuningdek, tinchlik o'rnatilgan davlatlarda madaniy almashinuvlar ham kuchayadi, bu esa xalqlar o'rtasidagi do'stlik rishtalarini mustahkamlaydi.

Tinchlikni saqlash faqat hukumatlar yoki xalqaro tashkilotlarning vazifasi emas, balki har bir insonning o'ziga ham bog'liq. Har birimiz tinchlikni saqlashga hissa qo'shishimiz mumkin. Buning uchun boshqalarni hurmat qilish, muammolarni tinch yo'l bilan hal etishga harakat qilish, o'zaro birdamlik va mehr-muruvvatni targ'ib qilish muhimdir. Oilada tinchlik bo'lsa, jamiyatda tinchlik bo'ladi, jamiyatda tinchlik bo'lsa, davlatda barqarorlik qaror topadi. Shunday ekan, har bir inson o'z atrofida tinchlik va osoyishtalik muhitini yaratishga intilishi kerak. Chunki har birimizning qilayotgan ezgu ishlarimiz jamiyatimiz va mamlakatimiz tinchligiga o'z ulushini qo'shadi. Biz yoshlar tinchlikning qadriga yetishimiz, uni asrab-avaylash uchun o'z hissamizni qo'shishimiz lozim. Yosh avlod tinchlikning naqadar muhim ekanligini chuqur anglab, jamiyatning rivoji va farovonligi uchun mas'uliyatli bo'lishi kerak. Tinchlik uchun harakat qilish nafaqat bugungi kunimiz, balki kelajagimiz uchun ham muhim ahamiyatga ega. Shu sababdan, tinchlik va osoyishtalikni avaylab, uni saqlashga astoydil harakat qilishimiz kerak.

Xulosa qilib aytganda, tinchlik – bu farovon va osoyishta hayotning garovi! Tinchlik bor joyda mehr-oqibat, do'stlik va ahillik mavjud. O'zbek xalqining bag'ri keng va samimiyligi tufayli, yurtimizda tinchlik va barqarorlik qaror topmoqda. Keling, biz ham bu tinchlikni saqlashga, uni yanada mustahkamlashga o'z hissamizni qo'shaylik. Tinchlik – bu hamma uchun birdek qadrlil boylikdir, uni asrash va kelajak avlodga meros qilib qoldirish bizning asosiy vazifamizdir.

Oila - mehnat tarbiyasi, ruhiy tarbiya, axloqiy tarbiya, kamolot, komil inson, axloq, ma'naviyat, "Turkiy guliston yoxud axloq", ²salom, hashar, hol so'rash odati, mehmon kutish odobi. Oila ijtimoiy hayotning abadiyligini, avlodlarning davomiyligini, tarbiyaning uzluksizligini ta'minlaydigan, kelajak nasl qanday bo'lib yetishishiga o'z ta'sirini ko'rsatadigan ijtimoiy makon va pedagogik omil vazifasini o'taydi. Inson oilada shakllanadi. Oila muhabbat, hurmat, birdamlik va mehribonlik manbai. Aynan shu qadriyatlarga har bir rivojlangan jamiyat suyanadi. Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek, "Biz uchun muqaddas bo'lgan oila asoslarini yanada mustahkamlash, xonadonlarda tinchlik – xotirjamlik, ahillik va o'zaro hurmat muhitini yaratish, ma'naviy – ma'rifiy ishlarni aniq mazmun bilan to'ldirishdan iborat bo'lmog'i zarur". Inson hayoti va turmush kechirishida oilaning roli beqiyos bo'lib, u muayyan darajada nustaqil hamda ijtimoiy muhit ta'siri ostida harakat qiladi. Ijtimoiy hayotning barcha jihatlarini, yutuqlari va kamchiliklari oilada o'z aksini topadi. Ayni paytda oila yangi insonni vujudga keltirish, bolalarni tarbiyalash, shaxsning ma'naviy va jismoniy shakllanishini ta'minlash orqali muayyan ijtimoiy jarayonga faol ta'sir ko'rsatadi.

Islom diniga e'tiqod qilina boshlangandan so'ng, diniy marosimlar ham o'z o'rnida o'tkazila boshlandi. Biroq oradan vaqt o'tishi bilan ushbu marosimlar, urf odatlar transformatsion jarayonlar ta'sirida o'zgara boshladi ya'ni bid'at amallar aralasha boshladi va asl mazmunidan farq qila boshladi. Jumladan, ta'ziya marosimi. Dastlab, ushbu marosim shariat bo'yicha uch kun tib belgilangan. Ya'ni bir kunda kela olmaganlar ertasi kuni kelib, sabrga chorlash, yupatish maqsadida kelishlari mumkin. Biroq bugungi kunda ushbu marosimga insonlar tomonidan yangiliklar kiritilib, bid'at amallar ko'paytirilgan:

Insonlardan bir toifasi bu hadisni o'qib: "Demak, bani odam ichida jannat va ne'matlanish uchun yaratilganlari borki, ularga gunohu ma'siyat qilish ziyon yetkazmaydi. Yana bir toifani do'zax va badbaxt bo'lish uchun yaratganki, ularga solih amalu toatlar kor qilmaydi. Bundan kelib chiqadiki, oxiratda kimdir ahli jannatdan bo'lsa, yoki ahli do'zaxdan bo'lsa, bu uning dunyoda qilgan amallari uchun emas, balki Alloh taolo ularni

² <https://jadid.uz/abdulla-avlonyning-turkiy-guliston-yoxud-axloq-asaridan-iqtiboslar>

taqdiriga bitgan narsani natijasidir. Bu mushkulotning yechimi quyidagicha bo‘ladi. Agar biz hadisni ushbu ma’noda, ya’ni xudojo‘y inson qilgan amallarni Alloh taolo qiymatini tushiradi va uni rizosini qasd qilib bajarilgan ishlarni zoya qiladi, deb tushunsak, u holda quyidagi oyatlarga xilof bo‘ladi. Alloh taolo «Kahf» surasi 30- oyatida aytadi: «Albatta, Biz iymon keltirgan va yaxshi amallar qilganlarning, go‘zal ish qilganlarning ajrini zoye qilmasmiz». Alloh taolo «Baqara» surasi 143-oyatida aytadi: «**...Alloh iymoningizni zoye qilmaydi. Albatta, Alloh odamlarga mehribon va rahmlidir**»³. Alloh taolo «Oli Imron» surasi 195-oyatida aytadi: «**...Robbilar ularning (duolarini) istijobat qilib: «Men sizlar-dan erkagu ayol amal qiluvchining amalini zoye qilmayman. Ba’zingiz ba’zingizdansiz... »** . Bizga ma’lumki, Nabiyy sollallohu alayhi vasallamning so‘zlari doimo Qur’oni karim kalomlariga muvofiq keladi. Shundoq ekan Nabiyy sollallohu alayhi vasallam bu hadislarida iroda qilgan ma’no ham yuqoridagi oyatlarga muvofiqdir.

Zamonlarning baland-past dovonlaridan o‘tgan sari qadriyatlar insonlarni tinchliktotuvlikka, mehr-oqibatga, ezgulikka, hamjihatlikka chorlaydigan katta ma’naviy kuchga aylana boradi. Bunday qadriyatlar ⁴millatning kundalik hayotida, madaniyati va ma’naviyatida, ongu shuurida, o‘zaro madaniy muloqotida, boshqalarga bo‘lgan munosabatida, umuman, har bir tashlagan qadamida o‘z ifodasini topadi. Shuning uchun ham mutafakkirlar qadriyatlar millat ma’naviyatining ko‘zgusi deyishgan. Yer yuzida xar bir millat faqat uning o‘ziga xos bo‘lgan an‘ana va qadriyatlari bilan aloxida ajralib turadi. Tabiiyki, har qaysi xalqning bebaxo boyligi qadriyat va an‘analari bir-ikki kunda paydo bo‘lib qolmagan. Insoniyatning necha ming yillik tarixiy tajribasi shuni ko‘rsatadiki, biror-bir narsaning an‘anaga ayniqsa, qadriyatga aylanishi uzoq davrni talab qiladi. “Milliy an‘analar - millat hayotining turli sohalarida namoyon bo‘ladigan tushunchalar, belgilar xususiyatlar, faoliyat turlari, odatlar va xislatlarning me‘ros bo‘lib qolish tarzi”.

³ <https://www.muslim.uz/uz/e/post/16949-ikkinchi-juz-2-baqara-surasi-142-145-oyatlar>

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati:

1. "Toshkent islom universiteti" nashriyot-matbaa birlashmasi, 2007.
2. Muslim, Imam. (1999). Sahih Muslim. (Tahrir: Muhammad Fuwad AbdulBaqi). Dar al-Kutub al-Ilmiyah.
3. Ming bir hadis Shayx Abdulaziz Mansur. - Toshkent: G'ofur Gulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2018. - 320 b.
4. Ziyovuddin Rahmon. Yoshlar tarbiyasi va islomiy qadriyatlar. Samarqand: Ilm ziyo, 2021, 59-bet.
5. Abdunabi Xoliqov. Dinshunoslik asoslari. Toshkent: O'zbekiston nashriyoti, 2019, 134-bet.
6. Imom Buxoriy. Sahih. 8934-hadis, 2-jild, 137-bet.
7. Muzafarov, R. (2019). Ma'naviyat va inson huquqlari: Tahliliy o'rganish. Toshkent: O'zbekiston davlat universiteti nashriyoti.
8. Shirinova, G. (2017). Inson huquqlari: nazariya va amaliyot. Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti.

Foydalangan saytlar ro'yxati:

<https://muslim.u/uz/e/post/40208-rasululloh-sly-allh-lyh-wslmga-salavot-qanday-aytiladi>

<https://islamnuri.com/books/solatru.htm>

<https://sammuslim.uz/oz/articles/actual/allohning-dostiga-dushmanlik-qilmang>

<https://muslim.uz/oz/e/post/40048-rasulullohning-sly-allh-lyh-wslm-go-zal-xulqlari>

<https://islamnuri.com/books/solatru.htm>

<https://mirarab.uz/ruknlar/1928>

<https://zamin.uz/uz/jamiyat/114642-rasulullohning-sollallohu-alayhi-vasallam-ramazon-oyidagi-amallari.html>

<https://kun.uz/uz/news/2015/07/11/rasululloh-sollallohu-alayhi-va-sallamni-haqiqatdan-sevasizmi-imtihonga>